

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING TASHKILY TUZILMALARI

*Abdullaeva Gulmira Abdullaevna,  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrasida assistent o'qituvchisi*

*Boshlang'ich sinf o'qish hamda ona tili darslari davomida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish o'ziga xos texnologiya talab etuvchi yo'nalish hisoblanadi. Mazkur maqolada ushbu jarayonni tashkillashtirishda olib borish mumkin bo'lgan metodologik jarayonlarning ilmiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili hamda o'qish darslarida olib boriladigan faoliyat turlari muhokama etiladi. Shuningdek, ayrim logopedik jihatlari ham maqolada tahlil etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinf, izohli o'qish, ko'nikma, metod, tahlil, texnologiya, ona tili.*

### ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ СТРУКТУРЫ ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Формирование навыков чтения на занятиях по чтению в начальной школе и на родном языке – направление, требующее уникальной технологии. В данной статье рассматриваются научные аспекты методических процессов, которые могут осуществляться в этом процессе. В статье рассматриваются виды деятельности, проводимые в начальных классах на уроках родного языка и чтения. В анализе статьи задействованы и некоторые логопедические аспекты.*

**Ключевые слова:** *Начальный класс, интерпретационное чтение, навык, метод, анализ, технология, родной язык.*

### ORGANIZATIONAL STRUCTURES OF TECHNOLOGY FOR IMPROVING PRIMARY CLASS READING SKILLS

*Formation of reading skills during primary school reading and mother tongue classes are the direction that requires a unique technology. In this article, the scientific aspects of the methodological processes that can be carried out in this process are considered. The article discusses the types of activities carried out in the primary grade mother tongue and reading classes. Some logopedic aspects are also involved in the analysis of the article.*

**Keywords:** *Elementary class, interpretive reading, skill, method, analysis, technology, mother tongue.*

**Kirish.** “Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti” ga ko'ra boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligi ta'limi sohasi bo'yicha tayyorlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrlil standart mezon orqali aks ettiriladi:

- a) o'qish texnikasi;
- b) o'zgalari fikrini va matn mazmunini anglash;
- c) fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'qish texnikasi bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash ko'nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni berilgan matndan bir daqiqada nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi belgilangan. Sinfdan sinfga o'tishda, miqdoriy ko'rsatkichdagi belgilar soni oshishi bilan birga, berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi [1, B.5-6].

**Adabiyotlar sharhi.** O'quvchilarning o'qish savodxonligi, yaxshi o'qish malakalarini shakllantirish muammosi pedagogik jarayonning eng muhim muammolaridan biri bo'lib kelgan. G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy, P.P.Blonskiy, D.B.Elkonin, N.A.Menchinskaya, L.Slavina, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faolligini rivojlantirish muammolari bilan shug'ullanishgan. Ushbu muammolar

ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar M.Koul, J.Morton va boshqalar tomonidan ham ko‘rib chiqilgan. Respublikamizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tili darslarida mustaqil fikrlashga o‘rgatish masalalari Y.Bobomurodova, R.Ibragimov, Sh.U.Nurullayeva, A.Q.Nisanbayeva, M.Z.Hamdama, innovatsion ta‘lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi U.A.Masharipova, umumta‘lim maktablarining yuqori sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish masalalari N.G.Alovuddinova, T.U.Ziyodova, O.Oxunjonova, M.Saidov, N.X.Sattorova, R.G.Safarova, X.Q.Shoymardonov, Sh.J.Yusupova, N.A.Qosimova kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.**

Natijalarni to‘plashda ota-onalarga beriladigan anketa savollari quyidagilardan iborat.

1. Siz farzandingizni o‘qishga tayyorgarlik jarayonini necha yoshdan boshlagansiz? (1 yoshgacha davrdagi bola bilan muloqot: kichik she‘rlarni o‘rgatish, sanamalarni o‘rganish, nutq va harakat birligi, rasmlarni kuzatish, kitob o‘qish, teleko‘rsatuvlarni ko‘rish, uydagi jihozlar haqidagi savollarga javob berish.)

2. Bolaning yoqtirgan she‘ri, qo‘shig‘i, kitobi bormi (yoqtirgan kitobiga tez-tez qaytadimi, o‘zi mustaqil ko‘rib chiqadimi, yoki kattalar ko‘magidan foydalanadimi)?

3. Bola ko‘proq nimani yoqtiradi – kitob, kino, multfilm ko‘rishnimi yoki ertak, hikoya, she‘r tinglashnimi?

4. Ota-onalar bola bilan ko‘rgani (kitob, rasm, filmlar) va eshitganlari (ertak, hikoya) haqida suhbat o‘tkazishadimi?

5. Bolada o‘qishga bo‘lgan qiziqish necha yoshda paydo bo‘lgan, kattalardek o‘qishga taqlid jarayoni kuzatilganmi?

6. Bola maktabgacha davri qanday o‘tgan MTTga borganmi, savodga o‘rgatilganmi, kim tomonidan va qancha muddat davomida?

7. Maktabga kelgan vaqtida o‘qishni bilganmi?

8. Bolaning somatik holati (kasal bo‘lish davri, va interval)

9. Birinchi sinfnng birinchi ikki oyli davrida va o‘quv yili davrida necha soat dars qoldirgan.

Bolaning ilk rivojlanish davri to‘g‘risidagi to‘plangan ma‘lumotlar asosida mutaxassis bolaning nutqiy imkoniyatlari, nutqiy holati hamda bolaga tegishli ko‘rgazmalarni tanlash bo‘yicha xulosaga ega bo‘ladi (ko‘rgazmadan, AKTdan og‘zaki va hokazo).

Bolaning o‘qishga qiziqish davri uning ruhiy holatining tayyorligini baholaydi. Bola katta bo‘lgan muhit uy - buva, buvi, ota-ona; maxsus MTT, yoki MTT ekanligi mutaxassisga bolaning nutqiga ta‘sir ko‘rsatgan faktorlar haqida tassavurni beradi. Bolaning somatik holatini inobatga olgan holda mutaxassis bola bilan korreksion rivojlantiruvchi ishni tashkil etishda inobatga olgan holda yondashadi.

Bolaga ta‘sir etuvchi nutqiy faktorlarni inobatga olgan holda mutaxassis o‘quvchining o‘qish malakalarini tekshirishga o‘tadi. Shartli ravishda mutaxassis diagnostik - korreksion ishni rejalashtiruvchi va tashkillashtiruvchi bosqichlarni qamrab oladi. Birinchi davrda bular ikki bosqichda tavsia etiladi [1, B.6].

Birinchi suhbat va muloqot jarayoni o‘ta muhim sanaladi, shuning uchun tekshirish jarayonida topshiriqni tushuntirib, namuna shaklidagi javoblar bilan ko‘maklashib, xushmomalalik bilan yondashib, bolani keyingi jarayonlarga jalb etish nazarda tutiladi. Birinchi qadamlardan boshlab bolaning qabul qilish, topshiriqni oxiriga yetkazish holatlarini o‘rganish olib boriladi.

1-topshiriq. O‘qing (harflarni o‘qing: avval bosma keyin yozma shaklni)

a - o - u - i	m - v - t - p	r - l - m - n
<i>a - o - u - i</i>	<i>m - v - t - p</i>	<i>r - l - m - n</i>
A - O - U - I	M - V - T - N	R - L - M - N

2-topshiriq. Intervalga rioya qilgan holda harflarni o‘qi.

sh - t,	b - k,	n - t
s - l,	d - v,	q - ch

(Nozik differentsatsiya)

j - z,	sh - s,	r - l,	m - n,
k - x,	g - k,	ch -	s - z
		s,	

3 - topshiriq. O‘qi hamda harflarni yozma va bosma, bosh va kichik shaklini nomla.

<i>j - z</i>	<i>Sh - s</i>	<i>R - L</i>	<i>M - N</i>	<i>K - N</i>
<i>K - x</i>	<i>G - k</i>	<i>Ch - s</i>	<i>Sh - s</i>	<i>V - f</i>

4– topshiriq. Unli va undosh harflarni nomla. Bo‘g‘inlarni o‘qi.

um-	eq-iq	ob-o‘b
o‘m		
im-	pe-pi	bo-bo
yem		
mi-	qa-qo	do-do
me		

5– topshiriq. So‘zdagi yozma *a, u, n, ch* harflarni top va ko‘rsat. Firdavs bilan Malika maktabga kelishdi.

Rustam aka mashinasiga gaz berdi. Yomg‘ir birdaniga kuchaydi.  
Shuchoq qo‘ngiroq chalindi.

6– topshiriq. Berilgan bosma harflarning yozma shaklini yoz. *A, u, m, n, v, t, k, l, b, d, ch, s.*

7– topshiriq. Berilgan yozma harflarning bosma shaklini ko‘rsat (bosma harflar beriladi).

*G, J, z, I, O, P, r, s, F, x, sh, Ye, R, I, p, m.*

8– topshiriq. O‘qituvchi tovushlarni nomlaydi o‘quvchidan mos rasmni ko‘rsatish talab etiladi.

Tovushlar

k, o‘, z

s, t, o, l

m, a, k, t, a, b mashina, manti, maktab

Rasmlar



ko‘z, ko‘za, kitob

stul, stol, soat













9– topshiriq. Rasmni nomla, so‘zdagi tovushlarni ketma-ketlikda ayt. (Ko‘rsatma: Rasmdagi nuqtalar tovushlar sonini anglatadi.)



 .....	 .....	 .....	 .....
 .....	 .....	 .....	 .....

10 – topshiriq. Rasmni nomla va so‘zdagi tovushlar ketma – ketligini ayt. (yordamchi nuqtalarning ko‘magisiz)

	100		
			A
			
			

11– topshiriq. So‘zlardagi tovushlarni ayt.

Choy, joy, tayoq, dala, sigir, etik, a‘lo, kitob, sinf, barg, fasl.

**Natijalar.** Eksperimantal ish 3 ta 2-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi. Diagnostika jarayoni darsdan tashqari soatlarda yoki darslar orasidagi tanaffuslarda individual ravishda o‘tkazildi. Ish paytida hech qanday qiyinchiliklar bo‘lmadi. Bolalar bajonidil aloqa o‘rnatdilar, osongina muloqotga kirishdilar.

O‘qish texnikasini tekshirish jarayonida o‘quvchilarning bo‘g‘inlarni, so‘zlarni va matnlarni o‘qishlari, matnni tushunish darajasi DTS asosida tekshirildi 4 balli tizimda baholandi. DTS ga ko‘ra 2-sinf o‘quvchisi bir daqiqada 35-40 ta so‘zni o‘qishi, 3-sinf o‘quvchisi esa bir daqiqada 45-50 ta so‘z o‘qiy olishi lozim [4, B.23].

Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarda o‘qish malakalarini o‘zlashtirish psixologiyasi va kichik maktab yoshidagi bolalarda bu jarayonning afzalliklarini inobatga olindi. O‘qishda bola ruhiyatining turli mexanizmlari ishtirok etadi. O‘qish jarayonida ko‘ruv diqqati va harflarni tanish va farqlash orqali amalga oshiriladi. Buning asosida esa harfning tovush orqali ifodalanishi, shu orqali so‘zning tovushlardagi talaffuzi va o‘qish jarayoni amalga oshiriladi. Yakuniy jarayon so‘zning tovushli shakli orqali mazmuni va o‘quvchining o‘qiganini tushunishiga erishiladi.

Tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan o‘quvchilar o‘ziga xos xarakterga ega ekanligi aniqlandi. 89 ta o‘quvchidan 12 nafar o‘quvchi vazifalarni bajarish jarayonida yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsata oldi, 46 nafar o‘quvchi vazifalarni bajarishda ko‘pgina xatolarga yo‘l qo‘yib past ko‘rsatkichni ko‘rsatdilar.

Tadqiqot natijasida o‘quvchilarning fonematik eshituv qobiliyati, artikulyatsion motorika, so‘z hosil qilish, so‘zning tovush-bo‘g‘inli tarkibi jarayonining shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqladik. Berilgan topshiriqlarni oson bajara olgan o‘quvchilardan farqli ravishda og‘zaki nutqi rivojlanmagan o‘quvchilar ko‘pgina xatolarga yo‘l qo‘ydilar, savollarga javob berishda qiynaldilar, so‘zlarning, gaplarning talafuzida qiynaldilar. O‘qish buzilishi bo‘lgan bolalarda me‘yorda rivojlanayotgan o‘quvchilardan farqli ravishda o‘qish jarayonini shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlariga o‘qish tezligining sekin shakllanishi, o‘qishni tushunishning buzilishi kiradi.

O‘qishning buzilishi yosh maktab o‘quvchilari tomonidan to‘g‘ri, ifodali va mazmunli o‘qish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga ta‘sir qiladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida biz ilgari surgan gipoteza tasdiqlandi.

Olingan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki o‘quvchilarda o‘qish malakalari past ko‘rsatkichda. Bu esa o‘z navbatida bolaning DTSga javob beruvchi o‘quvchi sifatida shakllanishga to‘sqinlik qiladi.

O‘qishning buzilishi yosh maktab o‘quvchilari tomonidan to‘g‘ri, ifodali va mazmunli o‘qish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga ta‘sir qiladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida biz ilgari surgan gipoteza tasdiqlandi.

O‘qish jarayonining buzilishi mexanizmlarini hisobga olgan holda tanlangan diagnostika ishlari boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida disleksiyani aniqlashga yordam berdi. Olingan tekshirish natijalari tadqiqotning keyingi bosqichidagi ishlar ko‘lamini belgilaydi, rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirishda yo‘nalish belgilashga xizmat qiladi.

Disleksiya-bu yuqori aqliy funksiyalarning shakllanishining (buzilishi) yo‘qligi va takroriy doimiy xatolarda namoyon bo‘lishi natijasida o‘qish jarayonining qisman o‘ziga xos buzilishi [5, B.14] deb ta‘rif bergan Volkova.

**Xulosa va munozara.** Shunday ekan biz o‘quvchining yuqori aqliy funksiyalarini shakllantirishga doir mashqlardan samarali ravishda foydalanishimiz korreksion ish mazmunini belgilab beradi. Hozirgi kunda ijtimoiy muhit bola rivojlanishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Axborot kommunikatsiya vositalarining rivojlanganligi, insonlarning texnikaga ruju qo‘yishi, bolalarning vertual hayotga kirib ketishi, bolalarning harakatli o‘yinlarni o‘ynamayotganligi aqliy funksiyalarning shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Biz o‘tkazgan tekshiruv va so‘rovnomalarda o‘ta past va past ko‘rsatkichni ko‘rsatgan o‘quvchilar, asosan, MTTga qatnamagan, texnikaga bog‘lanib vaqt o‘tkazgan bolalar bo‘lib chiqdilar. Demak, bu o‘quvchilarda aniqlangan bo‘shliqlardan kelib chiqqan holda, korreksion rivojlantiruvchi ta‘limga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘qishda jiddiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarda o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish S.F. Ivanenko 2017.
2. Respublika Bolalar ijtimoiy moslashuv markazi “Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi” 2019y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi Respublika ta‘lim markazi boshlang‘ich ta‘lim davlat ta‘lim standarti 47b.
4. Yozma nutqning buzilishi: Disleksiya. Disgrafiya. Volkova 2013 yil: 68
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi / 12 jildli. 6-j. – T.: “O‘ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 77-b.

6. G‘aniyeva B.I. Kutubhonalarda o‘quvchilar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik rivojlanishi. Ped.fan.nomz.diss. – T.: 2018 yil. -15 b.
7. Djezheley O.V. O‘qish va adabiyot // Dasturiy va uslubiy materiallar: O‘qish. Boshlang‘ich maktab / Comp. T.V. Ignatieva. – M.: Bustard, 2020. – B. 28.
8. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov, mas‘ul muharrir A.M.Majidov. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010. – 46 b.
9. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: “Fan”, 2018. – 163 b.
10. Usmonov S. Boshlang‘ich sinflarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. Nomz diss. avtoref. – T.: 2014. – 45 b.